



THE MORAL AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF HADITH INTERPRETATION IN QASTALANI'S WORK "SHARHI SAHIHI BUKHARI" AND THEIR EDUCATIONAL SIGNIFICANCE

N.U. Ramazonova

2nd-year Master's Student

Islamic Studies Department

Bukhara State University

nargizaramazonova97@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Qastalani, hadith, moral and methodological aspects, social relations, educational significance, spiritual values, islamic education.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article examines the moral and methodological criteria employed by Qastalani in presenting hadiths in his work "Sharhi Sahihi Bukhari." The study emphasizes that Qastalani's work serves not only as a valuable source in hadith studies but also as an indispensable guide in the moral and educational dimensions of contemporary Islamic thought.

QASTALONIYNING "SHARHI SAHIHI BUXORIY" ASARIDA HADISLARNI TALQIN QILISHNING AXLOQIY-USLUBIY JIHATLARI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

N.U. Ramazonova

II bosqich magistranti

BuxDU Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi

nargizaramazonova97@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qastaloni, hadis, axloqiy-uslubiy jihatlari, ijtimoiy munosabatlar, tarbiyaviy ahamiyat, ma'naviy qadriyatlar, islomiy tarbiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qastaloniyning "Sharhi Sahihi Buxoriy" asarida hadislarini yoritishda foydalangan axloqiy va uslubiy mezonlari o'rganiladi. Maqolada Qastaloniyning mazkur asari nafaqat hadisshunoslikning qiymatli manbasi, balki zamonaviy islomiy tafakkurda axloqiy va

tarbiyaviy yoʻnalishda bebaho qoʻllanma sifatida ham muhim oʻrin tutadi.

ПРАВСТВЕННО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ХАДИСОВ В СОЧИНЕНИИ КАСТАЛАНИ «ШАРХИ САХИХИ БУХАРИ» И ИХ ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Н.У. Рамазанова

Магистрант 2-го курса

Бухарский государственный университет, направление «Исламоведение»

nargizaramazonova97@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Касталани, хадис, нравственно-методологические аспекты, социальные отношения, воспитательное значение, духовные ценности, исламское воспитание.	Аннотация:	В данной статье исследуются нравственные и методологические критерии, использованные Касталани при изложении хадисов в его труде «Шархи Сахиhi Бухари». Статья подчёркивает, что данный труд Касталани представляет собой не только ценнейший источник по хадисоведению, но и служит бесценным руководством в нравственно-воспитательном направлении современного исламского мышления.
------------------------	---	-------------------	--

Kirish. Islom ilmlari ichida hadisshunoslik alohida oʻringa ega va bu sohada yaratilgan bebaho meros olimlar tomonidan asrlar davomida chuqur oʻrganib kelinmoqda. Ayniqsa, hadis ilmining ustuni deb eʼtirof etiluvchi Imom Buxoriy tomonidan tuzilgan “Al-Jome’ as-Sahih” asari Islom olamida eng ishonchli hadis toʻplami sifatida baholanadi. Asarda nafaqat hadislar jamlangan, balki ularga qoʻyilgan ishonchlilik mezonlari ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Shu bois “Sahihi Buxoriy”ni sharhlash va undagi hadislarining mazmunini chuqur tahlil qilish islom ulamolari oʻrtasida muhim ilmiy anʼanaga aylangan. Bugungi kunda ham ushbu asarning sharhlari islom ilmining eng chuqur tadqiq etilgan yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi globallashuv va maʼnaviy qadriyatlarga boʻlgan tahdidlar sharoitida islomiy merosni chuqur ilmiy asosda oʻrganish jamiyat maʼnaviyatini mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Axloqiy meʼyorlar, insoniylik, oʻzaro hurmat va jamiyat barqarorligini taʼminlaydigan qadriyatlar asrlar davomida hadis ilmining markazida boʻlib kelgan. Imom al-Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” asari esa nafaqat fihiy hukmlar, balki axloqiy-maʼnaviy gʻoyalarni yetkazuvchi eng ishonchli manbalardan biridir. Mazkur asarga yozilgan koʻplab sharhlar ichida Ahmad ibn Muhammad al-Qastaloniyni “Sharhi Sahihi Buxoriy” asari alohida oʻrin tutadi. Qastaloniyni sharh uslubi faqatgina hadislarining matnini tahlil qilish bilan

cheklanmay, balki ularning axloqiy, tarbiyaviy va ijtimoiy jihatlariga ham e'tibor qaratadi. Aynan shu jihat bugungi kunda — axloqiy inqirozlar, ma'naviy bo'shliqlar kuchayib borayotgan bir paytda — alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar, diniy-ma'rifiy merosni o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu esa buyuk allomalar merosini qayta o'rganish, ularning asarlarida mujassam bo'lgan axloqiy tamoyillarni yosh avlod tarbiyasiga tatbiq etish uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Muhtaram prezidentimiz ta'kidlaganlaridekdek, "Yurtimiz zaminidan juda ko'p olimlar, muhaddislar, avliyolar yetishib chiqqan, ularning merosi bundan ham ko'p. Lekin tan olish kerak, bu katta manbani chuqur o'rganmadik."

Maqolaning maqsadi — Qastaloniyning "Sharhi Sahihi Buxoriy" asarida hadislarini talqin qilishning axloqiy-uslubiy jihatlarini tahlil qilish, ularning tarbiyaviy ahamiyatini yoritish hamda zamonaviy ijtimoiy hayot bilan bog'lashdir. Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Qastaloniyning sharh uslubini manbashunoslik asosida o'rganish;
2. Axloqiy va tarbiyaviy mazmundagi hadislarini tahlil qilish;
3. Ularning talqinida qo'llangan uslubiy yondashuvlarni aniqlash;
4. Ushbu yondashuvlarning zamonaviy tarbiya tizimidagi ahamiyatini ochib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Qastaloniyning sharh uslubida aks etgan axloqiy-ma'naviy g'oyalar zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy tarbiya bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Mazkur yondashuv orqali hadislarining faqat diniy-huquqiy emas, balki tarbiyaviy-ma'naviy jihatlarini ham chuqur yoritiladi.

Shihobiddin Ahmad ibn Muhammad al-Qastaloni (1448-1517 y.) "Irshod as-Sori li sharhi Sahih al-Buxoriy" nomli asari Imom Buxoriyning "Sahih" kitobiga yozilgan eng mukammal, keng qamrovli va metodik jihatdan puxta sharhlardan biri sifatida tan olingan. Qastaloniyning mazkur asarni yozishga kirishishiga asosiy turtki — hadis ilmining chuqur mohiyatini ommaga kengroq tushuntirish, Imom Buxoriy keltirgan hadislarining matni, isnod, mazmuni va hukmlarini izchil ravishda sharhlash bo'lgan. Asar Hijriy IX asrda yozilgan bo'lib, bu davr hadis ilmining eng yuksak taraqqiyot bosqichlaridan biridir. Qastaloniyning sharhi faqatgina fiqhiy masalalarga emas, balki lug'aviy, tarixiy, axloqiy, ma'naviy va tarbiyaviy talqinlarga ham alohida e'tibor qaratganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Hadis ilmi bo'yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hadislarini talqin qilish jarayoni nafaqat matnshunoslik va isnod tahlilidan iborat, balki ularning axloqiy, uslubiy hamda tarbiyaviy jihatlarini ochib berish orqali islom ma'naviyati va ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur yo'nalishda Ahmad al-Qastaloniyning "Irshod as-Sori li sharhi Sahih al-Buxoriy" asari o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, u hadislarini talqin etishda fiqhiy va axloqiy tafakkurni uyg'unlashtirgan. Zamonaviy tadqiqotchilar,

jumladan, Muhammad Mustafa al-Azami (1977), hadis ilmining tarixiy rivojini tahlil qilar ekan, klassik sharhlarning islom tafakkuridagi oʻrni haqida soʻz yuritadi va Qastaloniyni kabi sharhlar nafaqat diniy, balki ilmiy-maʼrifiy manba sifatida eʼtirof etilishini taʼkidlaydi. Jonathan A. C. Brown (2009) esa hadislarini oʻrta asr va zamonaviy davr tafakkurida talqin qilish jarayonini yoritib, bu asarlarning musulmon jamiyatlarida axloqiy meʼyorlar shakllanishiga bevosita taʼsir koʻrsatganini qayd etadi. Shuningdek, Harald Motzki (2002) hadis rivoyatlari va ularning talqin tizimini manba tanqidi usulida oʻrganar ekan, sharhlovchi olimlarning, jumladan, Qastaloniyni tahliliy yondashuvini metodologik jihatdan qadrlash lozimligini taʼkidlaydi. Michael Cook (1983) va G. H. A. Juynboll (1996) asarlarida ham hadislarining ijtimoiy-tarbiyaviy funksiyasi yoritilib, ularning musulmon tafakkuridagi axloqiy oʻrni tahlil etilgan. Bu tadqiqotlar Qastaloniyni asarini faqat matnshunoslik namunasi sifatida emas, balki islomiy axloqshunoslik maktabining rivojiga hissa qoʻshgan manba sifatida qayta baholash imkonini beradi. Shu jihatdan, zamonaviy Gʻarb va Sharq tadqiqotlari oʻrtasidagi oʻzaro uygʻunlik Qastaloniyni sharhini yangi ilmiy kontekstda tahlil qilish uchun mustahkam asos yaratadi. Hadis talqini masalasida Muhammad Zakariyya al-Kandahlaviy (1988) va Yusuf al-Qaradoviy (1990) kabi zamonaviy musulmon olimlar ham muhim fikrlar bildirgan boʻlib, ular hadislarini hayotiy va axloqiy qoʻllanma sifatida oʻqish zarurligini uqtirgan. Ularning asarlarida hadis ilmini faqat tarixiy manba sifatida emas, balki zamonaviy inson ruhiyatiga va tarbiyaviy ehtiyojlariga javob beruvchi manba sifatida oʻrganish zarurligi taʼkidlanadi. Shuningdek, Fazlur Rahmon (1982) tomonidan ilgari surilgan “maʼnaviy kontekstual yondashuv” gʻoyasi Qastaloniyni sharh uslubi bilan hamohang boʻlib, u hadisni ijtimoiy-axloqiy mazmun nuqtayi nazaridan tahlil qilish zarurligini asoslab beradi. Zamonaviy islomshunoslikda hadislarining axloqiy-uslubiy talqini pedagogik va ijtimoiy fanlar bilan ham uzviy bogʻlanib bormoqda. U. M. Duderija (2012) hadislarining axloqiy va sotsiologik qirralarini oʻrganish orqali ularni zamonaviy tarbiya jarayonida qoʻllash imkoniyatlarini koʻrsatadi. Bu fikrlar Qastaloniyni sharhida kuzatilgan tarbiyaviy-didaktik yondashuv bilan uygʻunlashadi. Hadislarni faqat matn sifatida emas, balki axloqiy gʻoyalarni shakllantiruvchi maʼnaviy omil sifatida talqin etish Qastaloniyni asosiy uslubiy tamoyillaridan biridir. Zamonaviy olimlarning yondashuvlari bu asarni islomiy axloqshunoslik va pedagogika sohalarida yangi tadqiqotlar uchun nazariy asos sifatida oʻrganish zarurligini tasdiqlaydi. Shu maʼnoda, Qastaloniyni sharhi hadis ilmining faqat tarixiy bosqich emas, balki zamonaviy insonning maʼnaviy kamoloti uchun ham dolzarb manba sifatidagi oʻrnini yana bir bor namoyon etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qastaloniyni “Sharhi Sahihi Buxoriy” asarini yozishdagi asosiy maqsadlaridan biri — Imom Buxoriy merosining yuksakligini ochib berish va bu buyuk asarni chuqur talqin qilish boʻlgan. Mazkur sharh asar oʻnlab jildlardan iborat boʻlib, Imom

Buxoriy keltirgan har bir hadis chuqur tahlil qilingan. Muallif matnni tahlil qilishda quyidagi ilmiy tamoyillarga amal qilgan:

- Matn va isnodni tahlil qilish — hadisning zanjiri va matni ishonchliligini ilmiy jihatdan asoslash;
- Fiqhiy va aqidaviy jihatlarni sharhlash — hadisning huquqiy va e'tiqodiy ahamiyatini yoritish;
- Axloqiy va tarbiyaviy jihatlarni ochib berish — hadislar orqali ijtimoiy munosabatlar va insoniy fazilatlarni mustahkamlash;
- Til va lug'aviy tahlil — hadis matnida ishlatilgan arab tilining nozik jihatlarini tushuntirish.

Qastaloniyni "Sharhi Sahihi Buxoriy" asari hadisshunoslik tarixida yuksak ilmiy va metodologik yondashuvi bilan ajralib turadi. Asarda muallif nafaqat hadis matnlarini sharhlash, balki ularning mazmun-mohiyatini chuqur tahlil qilish, lafziy va ma'naviy izoh berish, fiqhiy xulosalar chiqarish hamda axloqiy-tarbiyaviy jihatlarni yoritishga katta e'tibor qaratgan. Qastaloniyni uslub o'z davrida shakllangan ilmiy an'analarni davom ettirgan holda, ularga chuqur tahliliy yondashuvni qo'shganligi bilan ahamiyatlidir. Dr. Muhammad al-Halabiy Qastaloniyni sharhi xususida quyidagicha fikr bildiradi:

"Imom Qastaloni "Irshod as-Sori" asarida faqat hadis matnini sharhlabgina qolmay, balki undagi fiqhiy, axloqiy va ruhiy-ma'naviy ma'nolarni chuqur ochib bergan. U o'z davrida Imom Buxoriy merosini keng ommaga yetkazishda eng mukammal va izchil uslubni qo'llagan muhaddislardan biri sanaladi. Ayniqsa, isnod va matn tahlilida qo'llagan usuli bugungi zamonaviy hadis tadqiqotlarida ham ilmiy asos sifatida e'tirof etiladi."

Avvalo, asarning uslubiy xususiyatlaridan biri bu — hadis matnini aniq talaffuz va to'g'ri qiroat asosida sharhlashdir. Qastaloniyni o'zi qiroat ilmidan ham chuqur xabardor bo'lganligi sababli, hadis matnlaridagi so'z va iboralarning lug'aviy, nahviy va sarfiy jihatlariga keng izoh beradi. Har bir hadisning matni to'g'ri talaffuz bilan keltirilib, keyin uning mazmuni tafsiliy sharh qilinadi.

Ikkinchidan, muallif isnod va matn tahliliga alohida urg'u bergan. Har bir hadisning roviylar silsilasi tahlil qilinib, ularning ishonchlilik darajasi, tarjimai holi va hadis ilmidagi maqomi ko'rsatilgan. Bu jihatdan Qastaloniyni metodi hadis ilmidagi "jarh va ta'dil" an'alariga tayangan bo'lib, u hadisning sahihligi va qabul qilinish darajasini aniqlashda qat'iy ilmiy mezonlarga amal qilganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, Qastaloniyni uslubida fiqhiy-metodik tahlil ham yetakchi o'rinda turadi. U hadislarining nafaqat zohiriy ma'nosini, balki fiqhiy hukmlarini ham keng yoritadi. Bu borada u hanafiy, shofe'iy, molikiy va hanbaliy mazhablaridagi yondashuvlarni solishtiradi, turli

fuqaholarning qarashlarini keltirib, ularni ilmiy dalillar bilan tahlil qiladi. Bu esa asarni faqat hadis sharhi emas, balki keng qamrovli fiqhiy-ma'naviy manbaga aylantiradi.

To'rtinchidan, asarda axloqiy-uslubiy yondashuv kuchli. Muallif hadislarini faqat ilmiy nuqtai nazardan emas, balki musulmon insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi o'rni nuqtai nazaridan ham talqin qiladi. Ayniqsa, Rasululloh alayhissalomning axloq- odoblari, insoniy fazilatlarini targ'ib qiluvchi hadislar keng tahlil qilingan bo'lib, muallif ularni jamiyat tarbiyasiga tatbiq etish zarurligini ta'kidlaydi.

Beshinchidan, Qastaloniyning metodologiyasida ilmiy manbalarga tayanish tamoyili ustuvor. U hadis sharhlarida Ibn Hajar al-Asqaloni, Imom Navaviy, Qurtubiy, Bayhaqiy, Imom Buxoriy va boshqa ko'plab mashhur muhaddis va mufasssirlarning asarlariga tayangan. Har bir ilmiy mulohaza dalillar bilan asoslanadi, ixtilofli masalalarda bir necha qarashlar keltiriladi va muallifning o'z pozitsiyasi ilmiy asosda bayon etiladi.

Shuningdek, asarda uslubiy soddalik va aniq izchillik kuzatiladi. Qastaloniyning sharhlari murakkab ilmiy atamalar bilan to'la bo'lsa-da, ularni tartibli va mantiqiy izchillikda bayon etadi. Har bir hadis alohida boblarda sharh qilinib, oldin matn, keyin isnod, so'ng lug'aviy va fiqhiy tahlil, nihoyat axloqiy-tarbiyaviy xulosa keltiriladi. Bu yondashuv o'quvchiga hadisning mazmunini chuqur va to'laqonli anglash imkonini beradi. Professor Abdulfattoh Abu G'udda Qastaloniyning ushbu sharhi haqida quyidagicha mulohaza bildiradi:

“Qastaloniyning sharhlari nafaqat hadis matniga izoh berishga qaratilgan, balki unda axloqiy tarbiya, ruhiy poklanish va ijtimoiy qadriyatlarni targ'ib qilish asosiy metodologik yondashuv sifatida ko'zga tashlanadi.”

Qastaloniyning “Irshod as-Sori li sharhi Sahih al-Buxoriy” asarida qo'llangan uslub va metodologiya hadisshunoslikda yuksak ilmiy yondashuvning yorqin namunasi hisoblanadi. U hadislarini nafaqat ilmiy mezonlar asosida tahlil qilish, balki ularning tarbiyaviy, axloqiy va ruhiy-ma'naviy jihatlarini ochib berish orqali musulmon jamiyatining ma'naviy hayotiga katta hissa qo'shgan. Mazkur tadqiqotda Qastaloniyning yondashuvi tahlil qilinar ekan, qiyosiy, manbashunoslik va tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot natijalarida Qastaloniyning metodologiyasi bugungi hadisshunoslikda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy model sifatida baholandi.

Tahlil va natijalar. Ushbu tadqiqot doirasida Qastaloniyning “Sharhi Sahihi Buxoriy” asarida hadislarini talqin qilishning axloqiy-uslubiy jihatlarini tahlil qilinar ekan, manbashunoslik, qiyosiy-tahliliy va ilmiy-deskriptiv metodlar asosida natijalar olindi. Tahlil jarayonida muallifning hadis matnlarini sharhlashdagi metodologiyasi, axloqiy-ruhiy g'oyalarni bayon etish uslubi hamda sahobalar rivoyatlarini izohlashda qo'llagan yondashuvlari chuqur o'rganildi. Aniqlanishicha, Qastaloniyning sharhi nafaqat hadis matnining ma'no qatlamlarini ochib berish, balki u orqali

musulmon shaxsining axloqiy kamolotini ta'minlashga qaratilgan pedagogik-uslubiy yo'nalishlarga ham ega. Shuningdek, u hadislarni tahlil etishda Ibn Hajar, Navaviy, Qurtubiy kabi allomalarning izohlariga murojaat qilib, o'zining manbashunoslik an'alariga sodiqligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Qastaloniyning axloqiy va uslubiy talqinlari bugungi zamonaviy islom ta'limi va tarbiya jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan ilmiy-nazariy asosga ega bo'lib, hadis ilmining amaliy va ma'naviy qadriyat sifatidagi o'rni va ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, Qastaloniyning "Sharhi Sahihi Buxoriy" asari hadis ilmi tarixida o'ziga xos ilmiy maktabni shakllantirgan, ayniqsa, hadislarni talqin etishda axloqiy va uslubiy yondashuvlarni uyg'unlashtirgan yirik manba hisoblanadi. Muallifning sharh metodida hadislarning nafaqat zohiriy ma'nosi, balki ularning tarbiyaviy, ruhiy va ijtimoiy mazmuni chuqur ochib berilgan. Bu jihatlar asarning nafaqat diniy-ma'rifiy, balki pedagogik va ma'naviy qadriyat sifatidagi ahamiyatini ham oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qastaloniyning ilmiy merosi bugungi kunda hadis ilmini o'qitish, axloqiy tarbiyani rivojlantirish hamda yoshlar ongida islomiy qadriyatlarga hurmat ruhini mustahkamlashda samarali manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq: birinchidan, islomshunoslik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga Qastaloniyning sharhlaridan namunalar asosida amaliy tahlil mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish; ikkinchidan, hadis ilmining axloqiy-uslubiy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan maxsus o'quv modullarini yaratish; uchinchidan, Qastaloniyning talqin uslubini zamonaviy axloqiy-pedagogik konsepsiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali hadis ilmining amaliy ahamiyatini kengaytirish. Shu tarzda, ushbu tadqiqot natijalari nafaqat hadisshunoslik sohasida, balki ijtimoiy-ma'naviy tarbiya tizimida ham qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy-amaliy yo'nalishlarni belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Samarqand viloyatiga tashrifi chog'ida Imom Buxoriy majmuasida so'zlagan nutqi. — 19 iyun 2020 yil. — Elektron manba: <https://president.uz/oz/lists/view/4115>
2. Ahmad ibn Muhammad Al-Qastaloni. Irshod as-Sori li sharhi Sahih al-Buxoriy. — Qohira: al-Matba al-Kubro al-Amiriyya, 1323 h. — 10 jild.
3. Muhammad Mustafa Azami. Studies in Early Hadith Literature. — Indianapolis: American Trust Publications, 1977. — 366 p.
4. A. C. Brown Hadith: Muhammad's Legacy in the Medieval and Modern World. — Oxford: Oneworld Publications, 2009. — 328 p.
5. Harald Motzki. The Origins of Islamic Jurisprudence: Meccan Fiqh before the Classical Schools. — Leiden: Brill, 2002. — 420 p.

6. Michael Cook. Early Muslim Dogma: A Source-Critical Study. — Cambridge: Cambridge University Press, 1983. — 254 p.
7. G. H. A. Juynboll, The Authenticity of the Tradition Literature: Discussions in Modern Egypt. — Leiden: Brill, 1996. — 312 p.
8. Fazlur Rahman. Islam and Modernity: Transformation of an Intellectual Tradition. — Chicago: University of Chicago Press, 1982. — 177 p.
9. Yusuf Al-Qaradavi. Kayfa Nataamal maa as-Sunnah an-Nabaviyyah. — Qohira: Maktabat Vahba, 1990. — 256 p.
10. Muhammad Zakariyya Al-Kandahlavi. Avjaz al-Masalik ila Muvatta Malik. — Karachi: Kutub Khana Mazhari, 1988. — 16 jild.
11. Adis Duderija. Constructing the Religious Self and the Concept of the Sunnah in the Contemporary Muslim Thought. — Islam and Christian-Muslim Relations, Vol. 23, No. 4, 2012. — pp. 451–470.
12. Abdulfattah Abu Ghuddah. Taqdim li Sharh al-Qastalani ala Sahih al-Buxari. — Damashq: Maktabat al-Matbu‘at al-Islamiyya, 1998. — 142 b.
13. Muhammad Al-Halabiy. Dirāsāt fī Manhaj al-Qastalani fī Sharh al-Hadith. — Qohira: Dar al-Salam, 2005. — 210 b.